



"OGAHIY LIRIKASI HAQIDA"

Mullayeva Ra'no Sultonaliyevna

*Farg'ona Viloyati Beshariq Tumani 1- Umumiy O'rta Ta'lim Maktabining Ona Tili
Va Adabiyot Fani O'qituvchisi*

METODIK TAVSIYA

Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy barakali ijod qilgan sa'natkor sifatida Navoiyga qiyoslanadi. Ulug' o'zbek shoiri, tarixnavis, tarjima maktabining asoschisi va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy 1809 yil 17 dekabrda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tug'ilgan. Shoir boshlang'ich ma'lumotni Qiyotda olgan, keyin Xiva madrasalarida o'qigan. Uch yoshligida otasi o'lib, amakisi Munis tarbiyasida qoldi.

Shoir 1845-yilda otdan yiqilib, oqsaydigan bo'lib qoladi va 1857-yilda miroblik vazifasidan iste'fo beradi. Mukammal mustazod kashfiyotchisi bo'lgan Ogahiy 1874-yilda 65 yoshida vafot etgan. Qolgan umrini ijodga bag'ishlaydi yilda Ogahiy amakisi Munisdan ajraldi, Olloqulixon uni Munis o'rniga mirob etib tayinladi.

Shoirning fors-tojik tilidan qilgan tarjimalari ham o'zbek adabiyoti xazinasidan joy olgan. Bular: Mirxondning «Ravzat us safo», Muhammad Mahdiy Astrobodiyning «Tarixi Jahonkushoyi Nodiriy», Z.Vosifiyning «Bad. vaqoye», Ali G'ijduvoniyning «Miftohi ut tolibin», Muhammad binni Shayx Muhammad Muqim Hirotiyning «Tabaqoti Akbarshohiy», Muhammad Yusuf Munshiyning «Tazkirai Muqimxoniy», Rizoqulixon Hidoyatning «Ravzat us safoyi Nosiriy»,

Kaykovusning «Qobusnoma», Muhammad Vorisning «Zubdat ul hikoyot», «Sharhi daloyil al hayrat», S.Sheroziyning «Guliston», A.Jomiyning «Yusuf va Zulayho», Badriddin Hiloliyning «Shoh va gado», Nizomiy Ganjaviyning «Haft paykar» kabi asarlardir. Bu tarjimalar Ogahiyning nafaqat shoir, davlat arbobi, balki yetuk tarjimon ham bo'lganligini ko'rsatadi. Asarlari: «Firdavs ul-iqbol», «Zubdat-ut tavorix», «Gulshani davlat», «Riyoz ud-davla», «Jome ul voqeoti sultoni», «Shohidi iqbol» kabi tarixiy asarlari, «Tavizul-oshiqin» («Oshiqlar tumori», 19 janrdagi asarlar mavjud) devoni, «Ustina» (rajaz bahrida yozilgan), «Bizki bukun...», «Arzimas», «Navroz», «Choy», «Bolmasa bo'lmasun, netay» (Navoiy g'azaliga nazira, radd ul-matla, radif shakliy va mazmuniy mukammallikni ta'minlagan), «Donoyi oliyjo'har» (davlatchilik, davlatni oqilona boshqarishdan, amaldorlar qanday bo'lishi kerakligidan bahs etuvchi g'azali) kabi she'rlari, «Ogohnoma» qasidasi (M. Rahimxon II (Feruz) ga bag'ishlangan) va boshqalar.

Ma'lumki, badiiy til keng imkoniyatlarga egaligi, adabiy tildan farqli o'laroq, shevalarga xos bo'lgan so'zlar (dialektizmlar), turli kasb-hunar sohalari, uslubiy



qatlamlar, tarixiy, eskirgan soʻzlarni qoʻllay olishi bilan ajralib turadi [Oʻzbek shevalari morfologiyasi, 1984:47]. Adabiyotning asosiy quroli – soʻzning kuchidan samarali foydalanib, asarlarini bashariyat uchun mangu tuganmas xazina sifatida qoldirgan shoir, tarixnavis, tarjimon hamda davlat va jamoat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy serqirra ijod sohibidir. Uning «Taʼviz ul-oshiqin» («Oshiqlar tumori») deb nomlangan devonida gʻazal, muxammas, murabbaʼ, musaddas, masnaviy, shuningdek, fard, tuyuq, qitʼa, ruboiy, muammo kabi yigirmadan ortiq janrdagi salkam yigirma ming misrali lirik merosi jamlangan. Ogahiy Sharqning xilma-xil sheʼriy shakllaridan toʻliq foydalangani holda ularda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri bilan bogʻliq mavzularni haqqoniy aks ettirdi. Lekin shoir sheʼriyatining aksariyat qismi ishqiy mavzudadir. Ogahiy lirikasida ishq-muhabbat yetakchi motivlardan biridir. Bu motiv nafaqat koʻhna, anʼanaviy, ayni vaqtda zamonaviy va betakror xususiyatlarga ham ega [Tojinazarova H. 2010:23]. Shoir badiiy tafakkurining koʻlami va koʻrkamligiga nazar tashlar ekanmiz, Ogahiy oʻz ijodida turli sheʼriy sanʼatlar- mubolagʻa, tashbeh, istiora, tamsil, tazod, husni taʼlil, talmeh, tardi aks, kitobat, tazmini muzdavaj kabilardan mohirona foydalanganligining guvohi boʻlamiz. Bu til vositalari shoir sheʼriyati, xususan, gʻazallari qurilishining zuvalasi pishiq, puxta, taʼsirchan va jozibadorligini taʼminlagan. Ulardan ayrimlarini tahlilga tortmoqchimiz. Qasdi jon ul koʻzlar etmish emdi yoʻq chiqmoq amon, Bermayin jon ul iki zolim arosidan sango yoki

Visoling ohulari rom esa menga tong yoʻq- Ki, ikki koʻz dur iki mavjligʻ bulogʻ mango

yoki Koʻzi bir sayyodkim, qosh yosi-yu kirpik oʻqi Jon qushin sayd etkali boʻlmishdurur asbob ango,- baytlarida shoir yor hajridagi oshiq tasvirini chizar akan, 1-baytda yorning koʻzlarini zolimga, 2-baytda ohuga va 3-baytda sayyod (ovchi)ga qiyoslab, tashbeh sanʼatidan samarali foydalangan. 2-baytda oshiq koʻzlari tashbehi ham berilib, koʻz buloqqa mengzalgan. Bu ikki xil mohiyatga ega: 1) har bir tashbeh oshiq yoki yorga tegishli ekanligiga koʻz alohida oʻxshatish asosiga ega boʻladi; 2) buloq – arab tilida “ayn” deb atalib, ham buloq, ham koʻzni anglatadi, natijada oʻziga xos soʻz oʻyini hosil boʻladi. Bu esa ijodkor gʻoyasini kitobxon qalbiga taʼsirchanroq yetkazishga imkon bergan. Ikki mushkin kokili ostida gulgun chehrasi, Husn ganjidurki, yotmish ikki ajdar ustida,- baytida Ogahiy tashbehning eng goʻzal namunalaridan birini qoʻllagan. Yorning goʻzal yuzini ganj (boylik)ga, sochini esa ajdarga oʻxshatgan. Bu baytda Sharq rivoyatlarida keng tarqalgan qarash – ilon (ajdar)lar xazina qoʻriqchilari ekanligiga inonch aks etgan. Hazrat Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida ham Farhod sandiqning sirini topishga (xazinaga) intilar ekan, yoʻlida ajdarga duch kelishi bayon qilinadi. Bu bilan maqsadga (ishqqa) yetishishda ulkan sinovlar mavjudligiga ishora qilinadi. Sochning qoraligi (mushkin) va yor yuzini yopib



turishi shu jihatdan ajdarga o'xshatilgan. Ijodkor o'z she'rlari qurilmasida mubolag'a san'atiga alohida ahamiyat bergan: G'aming tunida menga hech tiyralik yetmas, Ki onda shu'layi ohim erur charog' mango yoki Vaslig'a yetushkan chog' bag'rim o'ldi yuz pora, Oni tiyg'i mujgoni tildimu ekan oyo yoki Jahon bozorida sindurdi yoqut-u guhar qadrin, Durafshon nuqta birla la'li xandoning'a sallamno yoki Bu ra'no qad bila gar bog'a kirsang, sarv ila shamshod, Bo'lub banda turarlar bir ayoqda ehtrom aylab. 1-baytda oshiq o'z ohi shu'lasidan tunlari chirog' sifatida foydalanishi, 2-baytda oshiq bag'rining yor mujgon (kiprik)lari tig'idan yuz pora bo'lishi, 3-baytda ma'shuqaning la'l labi qimmatini jahon bozorlarida yoqut va gavhar narxini sindirishi, 4-baytda yorning go'zal qaddini ko'rib tik o'suvchi sarv va shamshod daraxtlarining ma'shuqaga hurmat ko'rsatib, bir oyoqda turishi kabi holatlar mubolag'a san'atining yuksak va keng tarqalgan namunalaridir. «Husni ta'lil» arabcha "chiroyli dalillash" ma'nosini bildiradi. Adabiy asarlarda tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona biron sabab ko'rsatish san'ati shu nom bilan ataladi" [Hojiahmedov H.2000:27]. Ogahiy bu san'atdan foydalangan holda takrorlanmas timsoliy ifodalar yaratgan: Xoli mushkinlarki, yer tutmish labi shirinida, Xayli hindudurki, g'avgo qildi shakkar ustida. Yuqoridagi misralarda xushbo'y hidli xolning ma'shuqa shirin labi ustida makon topishi «hindular to'dasi shakar ustida g'avgo qilyapti» tarzida g'ayritabiiy dalillangan. Bu xil husni ta'lil san'ati shoir ijodida talaygina.

Olida ham sarv-u gul, ham g'uncha bo'lmishdur xijil, Ul paridin o'zgaga bo'hton qad-u ruxsor-u lab,- baytini ijodkor mubolag'a va tashxis san'atlari bilan boyitgan, ya'ni yor go'zalligi-yu latofati oldida sarv, gul va g'unchaning xijolat chekishi mubolag'ali tasvir, shuningdek, tashxis san'atini yuzaga keltirgan. Ogahiy baytlar bitar ekan, bir nechta she'riy san'atlarni ipga marjon tergandek tizib qo'yadi: Agarchi Yusuf ahli husn sulton-u azizidur

Nigorim olida lekin g'ulomi xor-u kamtardur.

Baytda tasvirlangan mahbubaning go'zallikda tengsiz Yusufdan ham ortiq ekanligini kitobxon yorqinroq tasavvur qilishi uchun shoir talmeh va mubolag'adan foydalangan.

Karaming erur manga usru oz, sitaming manga erur usru ko'b, Kel-u maqsading'a etur mani bu oz-u ko'ping ko'p-u oz etib,- misralarida muallif tazod(oz-ko'p) va tardi aks(oz-u ko'ping - ko'p-u oz) san'atini she'r badiiyligi uchun qo'llagan. Tajohuli orif san'ati ham shoir she'rlari jozibadorligini ta'minlashda alohida mohiyatga ega. Bu jihatdan Ogahiyning «Gavharmu ekan oyo» hamda «Ko'zimga jilvagar ul yor» g'azallari deyarli boshdan-oyoq ushbu san'at asosiga qurilganligi bilan xarakterlanadi. Masalan: Ko'zimga jilvagar ul yormu ekan oyo, Va yo pari manga duchormu ekan oyo. Quyoshmudur kecha kulbam aro tulu' etmish, Va yoxud ul mahi ruxsormu ekan oyo, - baytlarida



mahbubaning o'zi pariga, yuzi esa quyoshga qiyos qilinadi-yu, lekin yor yoki pari, yor yuzi yoki quyosh ekanligi aniq aytilmaydi, shoir o'zini bilib-bilmaslikka soladi. Aslida esa u mahbubaning go'zalligini pariga va yuzini esa quyoshga qiyoslab, go'zal manzara yaratyapti. Javring chekibon joni hazin chiqqoli yetdi,

Ey jon-u jahon, joning uchun jonima rahm et,- baytida ijodkor bir xil («j») tovush takroridan foydalanib, alliteratsiya usulidan mohirona foydalangan. Shu jihatga ham alohida e'tibor qaratish lozimki, Ogahiy lirikasida xilma-xil qofiya san'atlari qo'llangan. Ular she'rning ohangdorligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qilgan. Jumladan, shoirning « Jondur fido» deb nomlanuvchi g'azalining maqta'dan tashqari barcha baytlari tarse' san'ati asosida bitilgan: Ey sabohatlig' yuzingg'a mehri raxshondur fido, Be halovatlig' labingg'a obi hayvondur fido.

Ogahiy she'riyati har qanday bachkanalikdan, o'rtamiyonachilikdan tamomila xoli yuksak ishqiy-tasavvufiy she'riyatdir. To'g'ri, unda falsafiy-tasavvufiy, ijtimoiy-siyosiy, ta'limiy-axloqiy ohanglar yo'q emas. Umuman, uning she'riyati rangin. Lekin bu mavzularning aksariyatini birlashtiruvchi narsa ishqdir, muhabbatdir. Ogahiy she'riyati mazmunan chuqur, falsafiy teran bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir. Uning timsollar olami, tashbeh-u qiyoslar silsilasi o'ziga xos, yangicha. Shoir har san'atning, har bir detalning, ungacha ilg'amagan qirralarini, borilmagan ma'naviy hudud kengliklarini kashf etishga harakat qiladi. Ogahiy lirikasining, umuman Ogahiy ijodining salmoqli qismini ishq-muhabbat mavzusi, oshiq va ma'shuqa obrazlari, bular orqali kishining tabiiy tuyg'usi, sevgi haqidagi fikrlari egallaydi. Jamiyatda, hayotda sevgiga munosabat dastlab Ogahiy lirikasining umumiy ruhida hazinlik, nadomat motivini ustun qiladi. Oshiq, ko'pincha yoriga yetolmaslik xususida chuqur hayajon, nadomat bilan hasrat qiladi. Ogahiy lirikasi umumiy ruhidagi bu hazinlik xursandchilikdan ko'proq hasrat motivlarini ustunligi shoirning shaxsiy tuyg'usi yoki qobilyatidagi biron nuqson natijasi sifatida yuzaga kelgan emas, aksincha, bu Ogahiy ulug' insonparvar o'z ijodida bevosita hayotdan oziqlangan, sevgi masalasida ham davrining asosiy xususiyatlarini ko'ra bilgan realist sifatida gavdalantiradi. Ogahiy lirikasida sevgi bilan bog'liq bo'lgan har qanday tuyg'u kechinmalar asosan ikki obraz: oshiq va ma'shuqa obrazlari orqali ifodalanadi. Bu obrazlar oshiqning, shu bilan birga, shoirning bu masalaga munosabati, oshiqning sevgi bilan bog'liq bo'lgan turli kechinmalari: visol, hijron, firoq, rashq va hakazo tusidagi tuyg'ularini ifodalash yo'sinida ko'rinadi. Ogahiyning "Yorima ayting" radifli g'azalida ham shunday munosabatlar bayon etilgan. Dunyodagi barcha lazzatni, inson go'zalligi va o'z yorini sevgan, bu sevgiga butun borlig'i bilan berilgan, nozik yurak to'lqinlarini chuqur sezadigan, o'z yoriga hattoki dardlarini aytishga haddi sig'maydigan oshiq obrazi jonlantirilgan. Ko'nglum g'amin, ey do'stlarim yorima ayting, Jonim alamin la'li shakarborima ayting. Bu baytda



birinchi baytdagi g'oya davom ettiriladi. Koshki mening bu dardlarimni eshitib, rahm qilib, kulbanga kelsa, men uni zor bo'lib kutishimni vafodoringa ayting, - deb murojat qiladi. Uchinchi baytda esa oshiqning ma'shuqa vasliga intilishi tasvirlangan: Istab nigohi gushai chashmin topa olmay, Bemorliqin ko'zlari bemorima ayting. Yorimning nigohini istadim, ammo ko'z qirini ham topa olmadim. Bu yerda ma'shuqa oshiqqa nazar ham tashlamaganligi ifodalangan. Natijada oshiq ma'shuqaning bepisandligidan bemor bo'lganligini va bu bepisand yorni "ko'zlari xasta" deb ta'riflaydi. Oshiq ma'shuqaning kiprigini hayol qilsa, tanasiga mingta o'q sanchilayotganligini va bu holni tanga ozor beruvchi yoriga aytishlarini quyidagi misralarda ifodalaydi.

Mujgon hayoli bila har lahza ming o'q, Sonchilg'onini bu tani afgorima ayting. Bu baytimizda mumtoz adabiyotimizda an'anaviy usul bo'lgan kiprikni kamon nayzasiga o'xshatish mubolag'a san'atidan foydalangan. Ya'ni ma'shuqa har nigoh tashlaganida uning kipriklari oshiqqa nayzadek sanchilayotgani, bu esa uning ko'ngliga jarohat yetkazgani ifodalangan. Keyingi baytda bunday qiynoqlarga chiday olmagan oshiq holati quyidagicha tasvirlanadi: Ozorig'a ko'nglim chidamay, emdi o'lgunga, Rozi erur ul sho'xi dilozorima ayting, Bunday qiynoqlarga ko'ngli chiday olmay, o'limiga rozi ekanligini dilga ozor beruvchi yoriga aytishi so'raladi. Bu baytda ham shoir an'anaviy usulga aylangan oshiqni o'limga hamtik boqish holatini ifodalagan. Ya'ni oshiq ma'shuqadan ko'rayotgan jabr-u jafolar oldida o'lim hech qanday qadrga ega emasligi mohirona tasvirlangan. Kelsun dog'i qatil aylasunu qonima qonsun, Qotilvashu oshiq kushu xunxorima ayting. Yuqoridagi bayt mazmuni: ul yor kelib meni qatl etsin va meni qonimga qonsin, qotildek oshiqni o'ldiruvchi qonxo'rimga ayting. Oshiq har kimning qo'lida emas, balki ma'shuqaning qo'lida o'lishni istaydi. Maqtaga kelganda kelganda shoir do'stlariga qat'iy ravishda shunday deydi: Ogahiy o'ltirsinu yo komini bersun, Zinhor borib yori jafokorima ayting. Ya'ni ma'shuqa kelib meni o'ldirsin yoki maqsadini aytsin, buni tezda borib jafakor yorimga ayting, deb aytadi. Ma'shuqasining maqsadini bila olmay qiynalgan oshiq undan maqsadini aytishini yoki o'ldirishini so'raydi. "Yorima ayting" g'azalida shoir badiiy san'atning nido san'ati (ey do'stlarim), istiora (la'li shakarborim, ko'zlari bemorlig'im, parizodi vafodoringim), tanosib (qatl, qotilvash, qon, kushu, xunxor) va mubolag'a san'atidan mohirona foydalangan. Bu esa asarning badiiy ta'sirchanligini yanada oshirgan. G'azal hazaj bahrida (hazji musammani axrabi makfufi mahzuf: maf'ulu mafoiyly mafoiyly faulun) yozilgan. Ayting so'zi qofiyadan so'ng takrorlanib radif vazifasini bajargan. G'azalning qofiyasi (yorima, shaker borima, bemorima, afgorima, dilozorima, xunxorima, jafokorima) raviydan keyin harflar kelganligi uchun mutloq qofiya hisoblanadi.



Qofiyalarda R harfi raviy hisoblanadi. G'azalda oshiqning o'z yoriga - ma'shuqasiga bo'lgan muhabbati samimiy, ham nihoyatda chuqur ekanligi tasvirlangan. Oshiqning sevgi tuyg'ulari, orzulari nihoyat darajada tabiiy, bu tufayli o'quvchiga chuqur ta'sir qiladi. Bu tabiiy va reallik g'azalga uzoq umr baxsh etadi. Shoir merosidagi barcha fikr va g'oyalar ishq tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Barkamol inson barkamol dunyoni, buyuk vatanni, qudratli millatni yaratadi. Inson barkamol bo'lishi uchun, avvalambor, ruhan ozod bo'lishi shart. Ruhan ozodlik bu parhezkorlik, halollik, adolat, qanoat, sadoqat, mehr-oqibat kabi qator amallar bilan chambarchas bog'liq. Xo'sh, ruhiy ozodlikka qanday erishish mumkin? Bu juda mashaqqatli, iztirobli yo'l. Ammo, insonni haqiqiy hurlikka, ruhiy kenglikka olib chiquvchi birgina vosita bor. U ham bo'lsa - ishq. Ana shu ishq orqali kishi Ollohga yetadi. O'zining va olamning mohiyatini, sir-asrorini anglaydi. Ogahiy ijodida ishq mavzusi shunday g'oyalarni ilgari suradi. Har birimizga ishq atalmish ilohiy tuyg'u nasib qilsin.

Umuman olganda, Ogahiy shu kabi rango-rang tasvir vositalari bilan o'z asarlariga badiiy sayqal berdi va o'zbek adabiy tilini boyitdi, xususan, she'riyatimizni behad yuksaltirdi. Shoir ijodiyotining yuqori badiiy-estetik xususiyatlari bugungi kun kitobxonlari uchun g'oyat qimmatlidir. Foydalanilgan adabiyotlar: 1. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? - T.: Sharq, 2001. 2. Lapasov J. Mumtoz adabiy asarlar o'quv lug'ati. - T.: O'qituvchi, 1994. 3. Ogahiy. Asarlar.1-jild.- T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at, 1972. 4. Yo'ldoshev R. Ogahiy leksikasi bo'yicha kuzatishlar // O'zbek tili va adabiyoti, 2007. - №2. - B.72-75. 5. Tojinazarova H. Ogahiy lirikasining badiiy-lisoniy tahlili // Til va adabiyot ta'limi, 2010. - №6 - B.22-25.

6. O'zbek shevalari morfologiyasi. -Toshkent, 1984. - B.47. 7. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. - Toshkent, 2000. - B.27. Ogahiy she'riyatidan. Toshkent. 1983. 120 b. 8. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. Toshkent. O'zbekiston FA nashriyoti. 1953. 238